

XIV–XV ASRLARDA MOVAROUNNAHRDA ARAB TILI VA GRAMMATIK TAFAKKUR RIVOJI

Berdiyev Sanjar Zokirjonovich

Samarqand davlat chet tillari instituti

Sharq tillari kafedrası 2-bosqich magistranti, Hadis ilmi maktabi o'qituvchisi

Telefon raqami 993426239

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20536156>

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Movarounnahr hududida arab tilining ilmiy va madaniy hayotdagi o'rnini, uning rivojlanish bosqichlari hamda bu jarayonga hissa qo'shgan yirik allomalar faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda arab tili grammatikasi, nahv va sarf ilmlarining Movarounnahrdagi o'rnini, ularning madrasaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati hamda ilmiy tafakkur rivojiga ko'rsatgan ta'siri yoritilgan. Maqolada Mahmud az-Zamaxshariy, Abdurahmon Jomiy, Sa'id Sharif Jurjoniy, Qozizoda Rumiy va Ali Qushchi kabi olimlarning arab tili grammatikasi, balog'at, mantiq va tafsir ilmlariga oid asarlari tahlil etilgan. Shuningdek, Temuriylar davrida Samarqand, Buxoro, Hirot kabi shaharlarda arab tilida ta'lim olgan ilmiy maktablar, madrasalar va ilmiy markazlarning faoliyati yoritilib, arab tili bu davrda islomiy ilmlar, tafsir, hadis, fiqh, mantiq, astronomiya va tibbiyot sohalarining asosiy tili bo'lib xizmat qilgani ilmiy asosda ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, arab tili, nahv, sarf, grammatik maktablar, az-Zamaxshariy, Jomiy, Jurjoniy, Temuriylar davri, madrasaviy ta'lim, ilmiy markazlar.

Annotation

This article explores the development and role of the Arabic language in the scientific and cultural life of Transoxiana during the late 14th and early 15th centuries. It analyzes the stages of Arabic linguistic evolution in the region and the contributions of prominent scholars to its advancement. The study examines the significance of Arabic grammar, particularly the sciences of nahw and sarf, in the madrasa education system and their influence on intellectual progress. Special attention is given to the works of renowned scholars such as Mahmud al-Zamakhshari, Abdurrahman Jami, Sa'd al-Din al-Taftazani, Sa'id Sharif Jurjani, Qazizada al-Rumi, and Ali Qushji, who made substantial contributions to Arabic grammar, rhetoric, logic, and Qur'anic exegesis. The article also highlights the activities of scholarly centers and madrasas in cities like Samarkand, Bukhara, and Herat during the Timurid era, where Arabic served as the principal language of Islamic sciences, including jurisprudence, hadith, tafsir, logic, astronomy, and medicine.

Keywords: Transoxiana, Arabic language, grammar, nahw, sarf, linguistic schools, al-Zamakhshari, Jami, Jurjani, Timurid era, madrasa education, scientific centers.

Аннотация

В статье рассматривается развитие и роль арабского языка в научной и культурной жизни Мавераннахра в конце XIV — начале XV веков. Анализируются этапы становления арабской лингвистики в регионе и вклад выдающихся учёных в её развитие. Особое внимание уделяется грамматическим наукам — нахву и сарфу, их месту в мадрасской системе образования и влиянию на развитие научной мысли. В исследовании рассматриваются труды таких выдающихся учёных, как Махмуд аз-Замакшари, Абдуррахман Джами, Саид Шариф Джурджани, Казизаде Руми и Али Кушчи, внёсших значительный вклад в развитие арабской грамматики, риторики, логики и тафсира. Кроме того, показана деятельность научных

центров и медресе Самарканда, Бухары и Герата в эпоху Тимуридов, когда арабский язык служил основным языком исламских наук — фикха, хадиса, тафсира, логики, астрономии и медицины.

Ключевые слова: Мавераннахр, арабский язык, грамматика, нахв, сарф, лингвистические школы, аз-Замашари, Джамии, Джурджани, эпоха Тимуридов, образование в медресе, научные центры.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda manbashunoslik, tarixiy-qiyosiy va matnshunoslik metodlari qo'llanildi.

Kirish: Arab grammatikasining paydo bo'lishi Basra, Ko'fa, Bag'dod, Misr va Andalusiyada vujudga kelgan va taraqqiy etgan bir qancha grammatik maktablar orqali uning rivojlanishi va takomillashuvi bilan bog'liq bo'lgan.

Fath qilingan Movarounnahr va Xorazm o'lkalarining xalqi ilk o'rta asrlarda haqiqiy islom dinini qabul qilgandan so'ng arab tilida fanlar paydo bo'la boshladi. O'sha dastlabki bosqichning rivojlanishi inson omili katnashgan fanlarning turli sohalarini o'z ichiga olgan erkin rivojlanishni va arab tilida yozilgan kitoblar orqali umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni almashishni o'z ichiga olgan bo'lib, bu Movarounnahr bo'ylab taniqli olimlarning paydo bo'lishiga imkon berdi. Arab islom fanlari va madaniyatini boyitish. Bu turk va forslardan ilm-fan, she'riyat, falsafa va tarixdagi daholarning chiqishi edi¹.

Movarounnahr o'lkasida ham nahv va sarf ilmi borasida zabardast allomalar yetishib chiqqan va bu sohada qimmatli asarlar yozib qoldirganlar. Jumladan, Az-Zamaxshariyning "al-Mufassal fin-nahv", "Al-Harokot", "Asasul balog'a", Umar Jandiyning "Al-Iqlid" asari, tarixda Zamahshariyning izdoshi nomi bilan tanilgan Al-Mutorriziyning "Al-Misbah² fi nahv", "Al-Iqna'u fil lug'at", Muhammad Al-Mu'iziyning "Tasriful-af'al", Hamididdin Doririyning "Muqaddimatu Ad-Doririy" va Abdurahmon Al-Jomiyning "Sharh Mullo" asarlari shular jumlasidandir. Bu asarlar Islom olamidagi bebaho asarlar sirasiga kiradi³.

Asosiy qism: Arab tilining qonun-qoidalari tizimi - nahv ilmini yaratgan va kamolga yetkazgan olimlar orasida bizning bobokalonimiz Mahmud az-Zamaxshariy muhim o'rin egallaydi. Alloma haqidagi ma'lumotlar asosan O'rta asr arab manbalarida keltirilgan. Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy 467/1075 yil 27 rajab oyi, 19 martda Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tavallud topgan. Otasi unchalik badavlat bo'lmasa-da, savodli, taqvodor, diyonatli kishi bo'lgan va aksar vaqtini ibodat bilan o'tkazib, Zamaxshardagi bir masjidida imomlik ham qilgan. Onasi ham xudojo'y bo'lgan. Sharqda allomani chuqur hurmat va mehr bilan "Ustozul arab val ajam" (Arablar va g'ayri arablar ustози), "Faxru Xorazm" (Xorazm faxri) kabi sharafli nomlar bilan ataganlar. Zamaxshariy⁴ hayoti davomida ilm o'rganish maqsadida tinmay dunyo kezgan. Buyuk alloma Xuroson, Eron, Arabiston, Iroq, Yaman, Shom (Suriya) kabi davlatlarning Marv, Nishopur, Isfahon, Bag'dod, Hijoz, Damashq va Makka kabi shaharlarida bo'lib, asarlari uchun boy manba to'plagan. Ma'lumotlarga ko'ra, olim o'zining ko'plab asarlarini Makkada yozgan va xuddi shu yerda buyuk olim sifatida e'tirof etilgan, shuhrat qozongan. Zamaxshariy o'z davrining zabardast olimlaridan biri bo'lib, fanning turli sohalariga oid yetmishga yaqin asar yozgan. Afsuski, bizga shulardan ba'zilarigina yetib kelgan, xolos. Allomaning asarlari ro'yxati turli manbalarda turlicha keltiriladi.

¹ Az-Zamaxshariy. Al-Mufassal. – Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 1998. – B. 12.

² Tehron Universiteti qo'lyozmalar fondi. *al-Misbah*, № 2468.

³ I. Ahmadov, "Movarounnahrda arab tilining ilmiy roli". Sharq yulduzi, 2005 – B. 34-36.

⁴ Tarikhi al-adabiyoti al-arabiy (tarjimasi: doktor Muhammad Rizo Shafii Kadkaniy). Tehron: Ilmiy va madaniy nashriyot, 1375. – J. 1. – B. 388.

Buyuk allomaning bebaho merosi durdonalari orasida tilshunoslikka oid eng mashhur asarlaridan “Sharh abyot kitob Sibavayh” (شرح أبيات كتاب سيوييه) “Sibavayh kitobining sharhi”, “Al-Mufassal”, “Al-Unmuzaj” (grammatikaga oid) alohida ahamiyatga ega. Arablarda ham bunday maqol bor: “Agar Zamaxshariy bo’lmaganida, arablar o’z tilini bilmas edi”. Shunga ko’ra, allomaning bunday tahsin-maqtovlarga erishishi va butun dunyoga mashhur tilshunos, grammatik olim bo’lib tanilishiga sabab arab tili grammatikasiga bag’ishlab yozilgan “Al-Mufassal fin nahv” – “Nahv (grammatika) haqida mufassal kitob” asari bo’lsa, ajab emas “Al-Mufassal” arab tili nahv sarfni o’rganishda yirik qo’llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G’arbda ham shuhrat topgan asarlardan hisoblanadi. Ko’pchilik olimlar o’z ilmiy qimmatini jihatidan az-Zamaxshariyning bu asari taniqli arab tilshunosi Sibavayhning (vaf. 796/1393) arab grammatikasiga oid yozgan “Al-kitob”⁵idan keyin ikkinchi o’rinda turadi, deb ta’kidlaganlar. O’sha davrning o’zidayoq arablar orasida ham bu asar katta e’tibor qozongan va arab tilini o’rganishda asosiy qo’llanmalardan biri sifatida keng tarqalgan.

Quyida alloma qalamiga mansub tilshunoslikka oid asarlar bilan tanishamiz. “Al-Mufassal fi san’atil e’rob”, “Asosul- balog’a”, “Balog’at asosi”, “Al-Harokot”, “Al-Mufrad val muallif fin nahv”, Arab tilida birlik va ko’plik”, “Al-Amoliy fin nahv”, “Grammatik qoidalarda orfografiya”, “Al-Mufrad val murakkab fil arabiya”, “Arab tilida birlik va ko’plik”⁶.

Az-Zamaxshariy oxirgi marta Makkadan qaytib, Xorazmda bir necha yil yashaydilar, (1144) 14-aprel arafa kechasi vafot etadi. Alloh taolo Imom az-Zamaxshariyning oxiratlarini obod etsin, qiyomat kuni Firdavs jannati bilan mukofatlasin, bizga qoldirgan meroslarini o’qib manfaat olishimizni nasib etsin⁷.

Abdurahmon Jomiy, (asl ism-sharifi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad) (816/1414) 11 iyul, Jom shahrida tugilib, (897/1492) 11 avgust, Hirot shahrida vafot etgan, fors-tojik shoiri, naqshbandiylik tariqatining yirik vakili. Asarlari o’zbek tiliga tarjima qilinib, bir necha marta nashr etilgan. “Kofiya sharhi risolasi”, “Favoiduz-ziyoiyya” asari nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Islom olamining keng hududlaridagi Uzbekiston, Tojikiston, Qozoqiston, Turkmaniston, Afg’oniston va Qirg’iziston⁸ dargoh va madrasalarda asosiy grammatik ta’lim manbai bo’lgan. Uning “Sharhi Mullo” nomi bilan tanilishi, madrasaviy manba sifatidagi nufuzini ifodalaydi. Mazkur asardan ta’lim olgan talaba, keyingi bosqichlarda tafsir, fiqh, mantiq va hadis kabi ilmlarga oson yo’l ochgan.

O’rta Osiyo fan va madaniyati tarixi bo’ycha taniqli rus tadqiqotchisi Bulgakov shunday yozgan edi: “O’rta Osiyo olimlarining nomlarining ko’pligi va ularning faoliyati uzoq vaqt davomida tabiat va adabiyot fanlari tarixiga chuqur ta’sir ko’rsatdi. Faoliyatining buyukligi tufayli shuhrati O’rta Osiyo yerlaridan tashqariga ham tarqaldi. Balki, Markaziy Osiyo olimlarining nomlari ko’pligi va ularning ilm-fan oldidagi xizmatlari ilm-fanni taraqqiyot sari harakatlantirgan va ko’p sahifalarni egallagan buyuk kuchdir”. Qolaversa, Movarounnahrlik olimlar grammatika va arab tilini o’rganish uchun Shom, Iroq va Hijoz kabi arab mamlakatlariga ham borganlar. Ulardan: Ibn al-Hayyat, Yusuf al-Barqiy, Ahmad al-Barqoniy va boshqalarni aytish mumkin.

XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Movarounnahr hududida buyuk sarkarda Amir Temur (1336-1405) va uning vorislari hukmronlik qilgan. Temuriylar davlati tarkibiga kirgan. Bu davrda mintaqa ulkan madaniy va ilmiy rivojlanish bosqichini boshdan kechirdi. Temuriylar ilmu fanga, ayniqsa, islomiy ilmlar, matematika, astronomiya, tibbiyot va falsafaga katta e’tibor berdilar. Arab

⁵ Abdulaziz Mansur. *Movarounnahrda arab tili va grammatikasining rivojlanishi*. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 91-92.

⁶ Samariy. Fozil Solih. *Zamaxshariy va merosi al-ilmiy*. – Bag’dod: Dar al-Ilm, 2002. – B. 41.

⁷ Husni Abdujalil Yusuf. *Zamaxshariy va nahviy merosi*. Qohira, 1979. – B. 22.

⁸ Alimov L. *Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat*. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 38.

tili bu davrda asosiy ilmiy va diniy til bo'lgan, chunki Qur'on, hadis, fiqh, tafsir, mantiq va boshqa islomiy ilmlar aynan arab tilida yozilgan.

Bu davrda Movarounnahrda Samarqand, Buxoro, Hirot va Toshkent kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlariga aylandi. Bu yerda ulkan madrasalar va kitobxonalar barpo etildi, ularda ta'lim asosan arab tilida olib borilar edi⁹.

XIV-XV-asrlarda arab tili Movarounnahrda uch asosiy yo'nalishda rivojlandi:

1. Diniy ilmlar va islomiy adabiyot. Arab tili islom dinida muqaddas til bo'lib, u Qur'on, Hadis va shariat ilmlarida asosiy til sifatida ishlatilgan. Fiqh (islom huquqshunosligi), tafsir (Qur'on sharhi), Hadis va tasavvuf sohalarida barcha muhim asarlar arab tilida yozilgan. Bu davrda mashhur islom huquqshunoslari arab tilida fiqhiy asarlar yozib, ularni butun islom olamida tarqatdilar. Burhoniddin al-Marg'inoniy (1135-1197) tomonidan yozilgan "Al-Hidoya" asari ushbu davrda ham arab tilidagi eng muhim huquqiy manbalardan biri bo'lib qolgan.

2. Ilmiy va falsafiy asarlar. Matematika, astronomiya, tibbiyot va mantiq sohalarida arab tilida yozilgan asarlar Movarounnahrda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Sulton Ulug'bek (1394-1449) hukmronligi davrida Samarqand ilmiy markazga aylanib, bu yerda arab tilida bir qator muhim asarlar yaratilgan. Ulug'bekning mashhur "Ziji Jadidi Kuragoniy"¹⁰ (*Zij-i Jadid-i Kuroginiiy*) (astronomik jadvallar) asari arab tilida yozilgan va keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilingan. Astronomiya, fizika va mantiq sohalarida katta ishlarni amalga oshirgan Qozizoda Rumiy (1337-1412) va Ali Qushchi (1403-1474)¹¹ kabi olimlar ham o'z ishlarini arab tilida yozganlar.

3. Madrasalar va ilm markazlari. Movarounnahrda madrasalarda ta'lim asosan arab tilida olib borilgan. Samarqand, Buxoro, Hirot va boshqa shaharlarda barpo etilgan madrasalar islom olamining eng nufuzli ilmiy markazlaridan biriga aylangan. Bu madrasalarda nahv (grammatika), sarf (morfologiya), mantiq, falsafa, astronomiya, matematika, tibbiyot va islom huquqshunosligi o'qitilgan. Bu davrda arab tili diniy va ilmiy sohalarida asosiy til bo'lgan bo'lsa, fors tili davlat ishlari, saroy madaniyati va adabiyot tili sifatida faol qo'llangan. Arab tili asosan madrasalar, masjidlar, ilm-fan va huquq sohasida ishlatilgan. Fors tili davlat hujjatlari, devon ishlari va shoirlar uchun asosiy til edi. Sharqiy turkiy (o'zbek) tili ham asta-sekin taraqqiy eta boshlagan, lekin bu davrda ilmiy va diniy asarlar arab tilida yozilgan. Arab tilidan fors va turkiy tillarga bir qator kitoblar tarjima qilingan. Ushbu davrda bir qator mashhur olimlar va mutafakkirlar arab tilida yozilgan asarlari bilan butun islom olamida mashhur bo'ldilar:

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Movarounnahr arab tili rivojlanishi uchun ulkan ilmiy markazga aylangan.

Arab tili bu davrda asosiy ilmiy va diniy til bo'lib, uning asosiy qo'llanish sohaları Qur'on tafsiri, hadis fiqh, falsafa, mantiq, astronomiya va matematika edi.

Temuriylar madrasa va ilm-fanni qo'llab-quvvatlaganlari tufayli, arab tilida yozilgan asarlar keng tarqaldi.

Arab tili bilan birga fors va turkiy tillar ham rivojlanib, ilm-fan, adabiyot va davlat boshqaruvida foydalanildi.

Bu davrda yozilgan arabcha asarlar keyingi asrlarda ham islom olamidagi ilm-fan va madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

⁹ Alimov L. *Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat*. – Toshkent: Fan. 1996. – B. 6.

¹⁰ Azamatov Sh. *O'rta asrlar Markaziy Osiyo madaniyati va arab tili*. – Toshkent: Ma'naviya., 2007. – B. 28.

¹¹ Saliba, Jorj. *Islom ilm-fani va Yevropa Uyg'onish davrining shakllanishi*, – 1-nashr – Boston: MIT Press. 2007 – B. 142.

Shuningdek, XIV-XV asrlarda arab tili hanuzgacha diniy va ilm-fan tili bo'lib qolgan bo'lsa ham, fors va turkiy tillar ham o'zining nufuzini kuchaytirib borgan. Bu jarayon keyingi asrlarda o'zbek tilining adabiy va ilmiy til sifatida shakllanishiga asos yaratgan.

Movarounnahr tarix davomida islom ilm-fani va madaniyatining yirik markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu hududdan yetishib chiqqan olimlar arab tili, nahv (grammatika), sarf (morfologiya), lug'atshunoslik, tafsir, hadis, fiqh va falsafa kabi sohalarda ulkan hissa qo'shganlar. Ular nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham butun islom olami uchun muhim manbalar yaratganlar.

Abu Abdurahmon al-Xalil ibn Ahmad ibn Amr ibn Tammam al Farohidiy (718-786). Xalil ibn Ahmad arab fonetikasining asoschilaridan biri bo'lib, "Kitob al-A'yn" "Ko'z manbai" yoki "Manba" nomli birinchi arab tilidagi lug'atni tuzgan. Bu asar arab fonetikasi va so'z tuzilishida inqilobiy ahamiyatga ega bo'lgan¹².

Shuningdek, u arab vazn ilmi-aruz asoschisi sifatida ham tanilgan. U yaratgan aruz tizimi orqali arab she'riyati tartibga keltirilgan. Uning tilshunoslikdagi ishlari Movarounnahrda ham keng tarqalgan, Jomiy, Jurjoniy kabi allomalarga ta'sir ko'rsatgan.

Abu Bishr Amr ibn Usmon ibn Qanbar al-Basriy (765-796). Arab tilining ilk grammatik tizimini yaratgan olim – Sibavayh hisoblanadi. U Kitob nomli asarida arab tilining fonetika, morfologiya va sintaksisini ilk bor tizimli ravishda yoritgan¹³. Movarounnahrda ushbu asar ko'plab madrasalarda asosiy manba sifatida o'qitilgan.

Sibavayh Basra nahviy maktabi vakili bo'lib, u arab tili grammatikasiga ilmiy asoslar bilan yondashgan. Uning yondashuvi keyinchalik Zamaxshariy, Jomiy va boshqa olimlar ishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Uning ushbu asari bir necha asr davomida sharhlar bilan boyitilgan¹⁴.

Abul Abbas Muhammad ibn Yahyo ibn Ziyod al-Mubarrad al-Basriy (826-898)

Imom Mubarrad – Basra nahviy maktabi yirik namoyandalardan biri bo'lib, uning Al-Kamil asari arab tilining nazariy asoslarini mustahkamlovchi muhim manbadir¹⁵. Ushbu asarda arab tili fonetikasi, nahviy kategoriyalari, iboralardagi ma'no aniqligi tahlil qilinadi.

Mubarrad o'z davrida arab tilining grammatik kategoriyalarini chuqur o'rgangan va nahviy metodologiyani takomillashtirgan. Uning asarlari orqali keyingi grammatik tafakkur metodi rivoj topgan. Bu esa Movarounnahr ulamolari orasida ham uning fikrlariga bo'lgan ehtiyojni oshirgan.

Abu Bakr Abduqohir ibn Abdurrahmon ibn Muhammad al-Jurjoniy (1009-1078). Abduqodir Jurjoniy forsiyazbon bo'lishiga qaramay, arab tilining balog'at, nazm va nasrda qo'llanilishi bo'yicha yetuk nazariyalar ishlab chiqqan. Uning eng mashhur asari Asror al-Balog'a bo'lib, bu asarda u arab tilining go'zallik mezonlarini ochib bergan.

Jurjoniy "ma'oniylar va bayon" ilmlarini rivojlantirgan va uslubshunoslikda "nazm nazariyasi"ni ilgari surgan. Bu nazariya arab she'riyati va nasridagi tuzilmani zamonaviy tilshunoslikka yaqin usulda tushuntirishga bulgan birinchi yondashuvdir¹⁶. Shuningdek, Daloi'l al-I'joz asarida Qur'on uslubining ilohiy jihatini grammatik va balog'at asosida tahlil qilgan.

Abul Qosim Maxmud ibn Umar ibn Muhammad al-Xorazmiy az-Zamahshariy (1075-1144). Az-Zamahshariy – arab tilshunosligi, tafsir, adabiyot va balog'at sohalarida ulkan iz qoldirgan

¹² Xalil ibn Ahmad al-Farohidiy. *Kitob al-A'yn*. Tahqiq: Mahdiy al-Maxzumiy. - Beyrut: Dar al-Kutub, 1990. - J. 1. - B. 6-7.

¹³ Sibavayh. *Al-Kitob*. Tahqiq: Abdul-Sattor Ahmad Harun. - Qohira: Maktabat al-Xanji, 1966. - J. 1, - B. 4.

¹⁴ Xalil, Muhammad. *Tarix al-lug'a va an-nahv*. - Beyrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1981. - B. 77.

¹⁵ Imom Mad. *Al-Kamil*. Qohira: Dar al-Fikr, 1978. - B. 22-23.

¹⁶ Jurjoniy Abduqodir. *Asror al-Balag'a*. Qohira: Matbaat al-Amiriya, 1954. - B. 14.

olimdir. Asli Xorazmlik bo'lgan bu alloma arab tilini nazariy jihatdan chuqur tahlil qilgan. Uning eng mashhur asari Al-Kashshof an Haqiq at-Tanzil nomli Qur'on tafsiridir¹⁷.

Az-Zamashshariy "mu'tazila" maktabiga mansub bo'lgan bo'lsada, u arab tilining balog'at va uslub jihatlariga oid tahlillari bilan barcha islomiy maktablarda tan olingan. U Qur'oni karimdagi lafzlar, grammatik shakllar, jumla tuzilmalari asosida murakkab tahlillar olib borgan. Shuningdek, Al-Mufassal fin-nahv nomli asari arab nahv ilmdagi eng muhim manbalardan biridir¹⁸. Bu asar "Maqomat" janriga oid matnlarni o'rganishda ham asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Sa'id Sharif Ali ibn Muhammad ibn Abdulvahob al-Husayniy al-Jurjoniyy (1339-1413)

Sa'id Sharif Jurjoniyy ham "Jurjoniyy" nomi bilan mashhur bo'lsa-da, u boshqa shaxs bo'lib, XIV-XV asrlarda yashab ijod qilgan. Uning eng mashhur asari - Ta'rifot bo'lib, bu lug'at-falsafiy asarda ko'plab arab tiliga oid atamalar tahlil qilingan¹⁹.

U balog'at, mantiq, kalom va nahv fanlariga oid ko'plab risolalar yozgan. Jurjoniyy Movarounnahr madrasalarida ham ta'sir ko'rsatgan, chunki uning asarlari Temuriylar davrida ilmiy dasturlarga kiritilgan. Sharh al-Matoli' fi ilm al-Mantiq (شرح المطالع في علم المنطق) nomli mantiqiy asarida ham arab tilidagi mantiqiy birliklar va ifoda shakllarining qoidalari muhokama qilingan²⁰.

Xulosa

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Movarounnahr arab tili, islomiy fanlar va umuman ilm-fan rivojining eng yuksak bosqichlaridan birini boshdan kechirdi. Bu davrda arab tili nafaqat Qur'on, hadis, fiqh, tafsir, kalom va mantiq fanlarining asosiy tili sifatida, balki ilmiy tafakkur va falsafiy mushohadalarning markazida turdi. Movarounnahr olimlari arab tili grammatikasi, lug'atshunosligi, balog'at va uslubshunosligi sohalarida beqiyos hissa qo'shdilar.

Zamashshariy, Jurjoniyy, Mubarrad, Xalil ibn Ahmad, Sibavayh singari buyuk allomalar yaratgan grammatik maktablar bu davrda nafaqat davom ettirildi, balki yangi ilmiy yondashuvlar bilan boyitildi. Xorazmlik az-Zamashshariy o'zining "Al-Mufassal" va "Asosul-balog'a" asarlari bilan arab tili nazariy asoslarini mukammallashtirgan bo'lsa, Abdurahmon Jomiy "Favoiduz-ziyo'iyya" asari orqali bu ilmni o'z davri ta'lim tizimiga moslashtirib, arab tili grammatikasining yuksak namunasini yaratdi.

Temuriylar davrida Samarqand, Buxoro va Hirot kabi shaharlar yirik ilmiy markazlarga aylangan bo'lib, bu yerda arab tilida yozilgan asarlar asosiy o'quv manbasi sifatida o'qitilgan. Madrasalarda nahv, sarf, mantiq, tafsir, fiqh, astronomiya va tibbiyot fanlari arab tilida o'rgatilgan. Shu bilan birga, arab tili bilan bir qatorda fors va turkiy tillarning ham rivoji uchun zamin yaratildi; bu tillar o'zaro ta'sir va tarjima orqali mintaqadagi ilmiy hamkorlikni mustahkamladi.

Bu davrda yaratilgan arab tilidagi asarlar keyingi asrlarda ham islom dunyosi ilm-faniga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Movarounnahr olimlari o'z asarlari orqali arab tili grammatikasi va tilshunoslik maktablarini yangi bosqichga olib chiqdilar. Ayniqsa, Abdurahmon Jomiy, az-Zamashshariy, Jurjoniyy kabi allomalar arab tilining nazariy, uslubiy va didaktik asoslarini mustahkamlab, keyingi asrlar ilm-fani rivojiga poydevor yaratdilar.

Xulosa qilib aytganda, XIV-XV asrlar Movarounnahrda arab tili nafaqat ilm-fan va din tili, balki mintaqaning madaniy, falsafiy va ma'naviy hayotining ajralmas qismi sifatida yuksak

¹⁷ Az-Zamashshariy. Al-Kashshof. Bayrut: Dar al-Fikr, 1998. J. I., - B. 12.

¹⁸ Az-Zamashshariy. Al-Mufassal fi Nahv. Qohira: Maktabat al-Xanji, 2002. - B. 5.

¹⁹ Sa'id Sharif Jurjoniyy. At-Ta'rifot. Beyrut: Dar al-Kutub al-Ilmiya, 1985. - B. 9-11.

²⁰ Jurjoniyy. Sa'id Sharif. Sharh al-Matoli'. Istanbul: al-Maktaba ash-Sharafiya, 1981. - B. 16.

mavqega ega bo'lgan davrdir. Bu meros bugungi kunda ham islom madaniyati, arab tilshunosligi va O'rta Osiyo ilm-fani tarixini o'rganishda bebaho manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Az-Zamaxshariy. Al-Mufassal. – Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 1998
2. I. Ahmadov, “Movarounnahrda arab tilining ilmiy roli”. Sharq yulduzi, 2005
3. Tarikhi al-adabiyoti al-arabiy (tarjimasi: doktor Muhammad Rizo Shafii Kadkaniiy). Tehron: Ilmiy va madaniy nashriyot, 1375. – J.
4. Abdulhaqim Sialquti. Sharh Favaiduz-ziyoiyya. Hindiston: Dar al-Kutub, 1926
5. Jurjoniy. Sa'id Sharif. Sharh al-Matoli'. Istanbul: al-Maktaba ash-Sharafiya, 1981
6. Sibavayh. Al-Kitob. Tahqiq: Abdul-Sattor Ahmad Harun. - Qohira: Maktabat al-Xanji, 1966. - J. 1
7. Xalil, Muhammad. Tarix al-lug'a va an-nahv. - Beyrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1981.
8. Imom Mad. Al-Kamil. Qohira: Dar al-Fikr, 1978.
9. Az-Zamaxshariy. Al-Kashshof. Bayrut: Dar al-Fikr, 1998. J. I
10. Tehron Universiteti qo'lyozmalar fondi. *al-Misbah*, № 2468.